



«TASDIQLAYMAN»

Jizzax viloyat hokimligi
"Yagona buyurtmachi xizmati"
Injineriing kompaniyasi direktori

X. Xasanov

« » 2022 y.

**"Jizzax shahar "Oqqo'rg'onlik" MFYda ichimlik suvi tarmog'ini
rekonstruksiya qilish" ob'ektiga loyiha-smeta xujjatlarini ishlab
chiqishga**

LOYIHA TOPSHIRIG'I

Jizzax - 2022 yil

**Jizzax shahar "Oqqo'rg'onlik" MFYda ichimlik suvi tarmog'ini
rekonstruksiya qilish**

1	Buyurtmachi	Jizzax viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" Injiniring kompaniyasi
2	Loyixalashtirish uchun asos	"Obod qishloq dasturi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi PQ-172-sonli qaroriga asosan.
3	Taxminiy qiymati	2 322,0 mln so'm
4	Qurilish turi	Qurilish
5	Moliyalashtirish manbai	Respublika byudjet mablag'lari
6	Bosh loyihalash tashkiloti	Tender savdolariga asosan aniqlanadi.
7	Bosh pudratchi	Tender savdolariga asosan aniqlanadi.
8	Ob'ektning loyihaviy quvvati	Suv tarmog'i texnik shartga ko'ra birinchi nuqtadan ulash tarmog' uzunligi 3,8 km Suv inshotini qurish Ichimlik suvi tarmog'i polietilen quvurlardan tortilsin, Suv tarmog'i yer ostidan tortilsin, va yo'l bilan kesishgan joylarida himoya g'ilofi bilan o'ralsin, Xaqiqiy parametrlari loyiha ishlari davomida aniqlanadi va loyiha-smeta xujjatlarida ko'rsatib o'tiladi.
9	Loyihani ishlab chiqish muddati	Shartnomada aniqlanadi.
10	Ob'ektning joylashgan xududi	Jizzax shahar "Oqqo'rg'onlik" MFY
11	Qurilishni boshlash muddati	2022 y.
12	Qurilishni tugallash muddati	2022 y.
13	Loyihalash navbatlari va bosqichlari	Bir bosqichda.
14	Ob'ektni resurslar bilan ta'minlash	Mahalliy qurilish materiallaridan foydalanishga ustuvorlik berilishi ishchi loyihada inobatga olinsin.
15	Smeta hujjatlarini ishlab chiqishga talablar	Smeta xujjatlarida qurilishning boshlang'ich narxi joriy narxlarda xisoblab chiqilishi lozim.
16	Suv tarmog'i	Polietilen quvurlardan foydalanilsin.
17	Loyihalanadigan suv tarmog'ini mutasaddi tashkilotlar bilan kelishish	Jizzax shahar bosh rejasida ko'rsatildi va mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlandi, kelishildi.
18	Texnik jarayonlar, jihoz va	Amaldagi me'yoriy xujjatlar talablari asosida loyihalanadi.

	uskunalarga talablar	
19	Yerlarni rekultivatsiyalash, xududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha talablar	Yerdan oqilona foydalanish ta'minlanishi lozim. Atrof muhitni himoyalash, buzilgan yerlarni tiklash ishlari xarajatlari ko'zda tutilsin.
20	Atrof muxitga ta'siri loyiha xujjatlarini ishlab chiqish	Loyihaning atrof muhitga ta'siri bo'yicha ekologik loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va unga Davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini rasmiylashtirish, qurilish davomida hosil bo'lgan chiqindilarni vaqtincha saqlash uchun hududdan maxsus joy ajratish va o'z vaqtida utilitatsiya qilish, hududdagi mavjud o'simlik qoplamini noqonuniy kesilishiga yo'l qo'yimaslik va zarar etkazmaslik, atmosfera havosi, er usti va tuproq qatlamining ifloslanishini oldini olish choralarini ko'rish.
21	Muhandislik izlanuvchilari zaruriyati	Toposyomka va gidrogeologiya xulosasini olish ishlari bajarilsin.
22	Qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish	SHNK ga asosan to'liq hajmda ishlab chiqilsin.
23	Smeta hujjatlarini tuzish usuliga talablar	Narxlar joriy qiymatlarda, ShnQ 4.01.16-09 "Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" talablari asosida belgilanadi.
24	Qurilishni tashkil etish loyihasini (QTEL) ishlab chiqish	Qurilishni tashkil etish loyihasi (QTEL) – to'liq hajmda ShnQ3.01.01 ga muvofiq ishlab chiqilsin.(Proyekt POS)
25	Muhandislik-qidiruv ishlarini amalga oshirish bo'yicha talablar, loyihalashning alohida sharoitlari.	Muhandislik-qidiruv ishlari hujjatlari (Muhandislik geologiyasi, topografik o'lchamlar va bosh.) loyiha tashkiloti tomonidan (shartnoma shartlari asosida) bajariladi.
26	Loyihalash va qurilishni o'ziga xos shartlari	Qurilish ob'ektini murakkablik toifasi-II.
27	Topshirish qabul qilish tartibi	Ishchi loyiha ushbu topshiriq talablariga binoan qabul qilinadi. Ishchi loyiha 4 nusxada qog'oz va 1 nusxada elektron shaklda amaldagi standartlar bo'yicha rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.
28	Qurilishda mualliflik nazorati	Bir oyda 4 (to'rt) marotaba mualliflik nazoratini olib borish. Loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan grafik asosida olib boriladi. Obyektda pudratchi yoki Buyurtmachi tomonidan masala ko'tarilganda, loyihachining ob'ektga borishi zaruriy shart hisoblanadi.
29	Taqdim etiladigan loyiha-smeta hujjatlarining nusxalari soni, bo'limlarining tarkibi va mazmuniga bo'lgan talablar	To'g'rilangan hujjatlarning buyurtmachiga taqdim etiladigan nusxalari soni 4 nusxada (chop etilib, tasdiqlangan va 1 nusxada elektron disk ko'rinishida) topshiriladi.

Izoh: Tanlov savdosi natijalariga ko'ra aniqlangan loyiha tashkiloti bilan obyektning joyiga chiqib o'rganishlar natija loyiha topshirig'iga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Tayyorladi:
Jizzax viloyat xokimligi "YaBX" IK bo'lim boshlig'i:



M. Aliyev